

GLOBALLASHUV SHAROITIDA FARZANDLARNI MA’NAVIY TAHDIDLARDAN HIMOYA QILISH

Obidov Abdulboriy Doniyor o’g’li
O‘zbekiston milliy universiteti talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.19410913>

Annotatsiya: Mazkur maqolada globallashuv jarayonining yosh avlod ma’naviy dunyoqarashiga ta’siri, zamonaviy axborot makonidagi tahdidlar hamda farzandlarni ma’naviy himoya qilishning pedagogik va ijtimoiy mexanizmlari tahlil etiladi. Shuningdek, oilaviy tarbiya, ta’lim muassasalari va jamoatchilik hamkorligining ahamiyati ilmiy asosda yoritib berilgan. Shuningek, globallashuv jarayonlarining yoshlar ma’naviyatiga ko’rsatayotgan ta’siri, “ommaviy madaniyat” niqobi ostidagi tahdidlar va ulardan yosh avlodni himoya qilishning pedagogik hamda ijtimoiy chora-tadbirlari tahlil qilinadi.

Kalit so‘zlar: globallashuv, ma’naviy tahdid, axborot xavfsizligi, tarbiya, oila, yoshlar siyosati, ommaviy madaniyat, axborot xuruji, milliy tarbiya, mafkuraviy immunitet.

Аннотация: В данной статье анализируется влияние процессов глобализации на духовное мировоззрение молодого поколения, его потребности в современном информационном пространстве, а также рассматриваются педагогические и социальные механизмы духовной защиты детей, безопасного воспитания, важность научно-исследовательского сотрудничества между образовательными учреждениями. Таким образом, рассматривается влияние процессов глобализации на духовность молодежи, защита под видом «массовой культуры» и анализируются педагогические и социальные меры защиты молодежи в них.

Ключевые слова: глобальная духовная социализация, духовный иммунитет, источники информации, воспитание, семья, молодежь, культурная атака, воспитание, идеология.

Abstract: This article analyzes the impact of globalization processes on the spiritual worldview of the younger generation, their needs in the modern information space, and pedagogical and social mechanisms for the spiritual protection of children. , safe upbringing, the importance of scientific research cooperation between educational institutions are basically covered. Thus, the impact of globalization processes on the spirituality of young people, protections under the guise of "mass culture" and analysis of pedagogical and social measures for the protection of youth in them.

Keywords: global spiritual socialization, spiritual immunity, information sources, upbringing, family youth, cultural attack, upbringing, ideological.

Bugungi kunda globallashuv jarayoni dunyo miqyosida ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy integratsiyani kuchaytirib, axborot almashinuvini tezlashtirmoqda. Bu jarayon ijobiy imkoniyatlar bilan bir qatorda, yoshlar ongiga salbiy ta’sir ko’rsatishi mumkin bo’lgan turli ma’naviy tahdidlarni ham yuzaga keltirmoqda. Axborot texnologiyalari rivojlanishi natijasida chegaralar ramziy ma’noga ega bo’lib qoldi. Globallashuv jarayoni ijobiy imkoniyatlar (ilm-fan yutuqlari, tezkor axborot almashinuvi) bilan birga, yoshlar ongi va qalbi uchun kurashayotgan turli yot g’oyalarni ham kiritib kelmoqda. Bu esa farzandlarimizni ma’naviy tahdidlardan himoya qilish masalasini davlat siyosati darajasiga ko’tardi.

Ma’naviy tahdid deganda shaxsning axloqiy qadriyatlarini, milliy o’zligi va dunyoqarashiga salbiy ta’sir ko’rsatadigan g’oyaviy, axborotiy va madaniy omillar tushuniladi. Globallashuv

sharoitida internet tarmoqlari, ijtimoiy media platformalari va ommaviy madaniyat orqali turli g’oyalar tez tarqalmoqda. insonning milliy va umuminsoniy qadriyatlariga zid bo’lgan, uning ruhiy dunyosini izdan chiqarishga qaratilgan g’oyaviy bosimlar tushuniladi. Hozirgi kunda bu tahdidlar asosan quyidagi ko‘rinishlarda namoyon bo’lmoqda:

- “Ommaviy madaniyat”: Milliy urf-odat va an’analarni mensimaslik, axloqsizlikni madaniyat sifatida talqin qilish.

- Axborot xurujlari: Ijtimoiy tarmoqlar orqali yolg’on ma’lumotlarni tarqatish, yoshlarni ekstremistik oqimlarga jalb qilish.

- G’arbga sig’inish: Milliy o’zlikdan voz kechib, begona hayot tarzini ko’r-ko’rona nusxalash.

Farzandni ma’naviy tahdidlardan himoya qilishning eng birinchi va muhim bo’g’ini — oiladir. Farzandda yoshligidanoq “mafkuraviy immunitet”ni shakllantirish lozim.

Mafkuraviy immunitet — bu har qanday yot g’oya va tahdidlarga nisbatan insonning o’z mustaqil fikri, mustahkam irodasi va axloqiy mezonlariga ega bo’lishidir.

Yoshlarni ma’naviy tahdidlardan himoya qilish uchun quyidagi usullarni qo’llash tavsiya etiladi:

- Muloqot madaniyati: Farzand bilan doimiy muloqotda bo’lish, uning qiziqishlari va ijtimoiy tarmoqlardagi faoliyatidan xabardor bo’lish, oilada sog’lom ma’naviy muhitni shakllantirish

- Milliy qadriyatlar: O‘zbek xalqining boy tarixi, adabiyoti va san’atini o‘rgatish orqali g‘urur tuyg‘usini shakllantirish.

- Media savodxonlik: Yoshlarga internetdagi ma’lumotlarni saralashni, foydali va zararli kontentni ajratishni o‘rgatish.

- Bo’sh vaqtni mazmunli tashkil etish: Sport, kitobxonlik va foydali to‘garaklarga jalb qilish orqali bekorchilikning oldini olish.

Xulosa o‘rnida aytish mumkinki, globallashuvdan qochib qutulib bo‘lmaydi, biroq uning salbiy oqibatlaridan himoyalaniish mumkin. Buning uchun “ma’rifatga qarshi jaholat” tamoyili asosida yoshlarning bilimni oshirish, ularning qalbiga ona vatanga muhabbat va milliy g’oyani singdirish lozim. Farzandlarni ma’naviy tahdidlardan himoya qilish kompleks yondashuvni talab etadi. Oila, maktab va jamiyatning hamkorligi asosida yosh avlodni milliy qadriyatlarga sodiq, mustaqil fikrlovchi va ma’naviy barkamol shaxs etib tarbiyalash mumkin. Ma’naviy sog’lom avlod — millat kelajagining kafolatidir.

Yoshlar ongiga ta’sir etuvchi asosiy omillar qatoriga nazoratsiz internetdan foydalanish, ommaviy madaniyatning salbiy ko‘rinishlari, virtual o‘yinlarga qaramlik va begona g’oyalar ta’siri kiradi. Bu omillar shaxsning ijtimoiylashuv jarayoniga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Sh. Mirziyoyev. "Yangi O‘zbekiston strategiyasi". - Toshkent, 2021.
2. Shavkat Mirziyoyevning Konstitutsiyaning 29 yilligiga bag`ishlangan nutqidan www.daryo
3. I. Karimov. "Yuksak ma’naviyat — yengilmas kuch". - Toshkent, 2008.
4. C. Otamuratov TOSHKENT “O‘ZBEKISTON” 2015y